

Protseduradan keyingi og'riq



Protseduradan (jarrohlikdan) keyingi og'riq va noqulaylik odatiy va kutilgan hol sanaladi. Og'riq yoki noqulaylikning katta qismi farzandingizning qulayligini yaxshilash va unga dam olishga yordam berish uchun kamaytirilishi mumkin.

Og'riqni qoldiruvchi dorilar va/yoki yumshatuvchi uslublar farzandingizning og'riqlarini kamaytirishi mumkin. Parvarish jamoasi (shifokorlar va hamshiralar) farzandingiz o'zini yaxshi his qilishi uchun bor imkoniyatini kuchga soladi, ammo farzandingiz bir qadar og'riq va noqulaylikni his qilishda davom etadi. Og'riqni qoldiruvchi dorilar nojo'ya ta'sir xatarini kamaytirish maqsadida cheklanishi mumkin.

Farzandingizning qulayligini yaxshilashning boshqa ko'plab yo'llari mavjud. Bu tarqatma farzandingizdagi og'riq va noqulaylikni boshqarishga yordam berishga oid ma'lumot va maslahatlarni taqdim etadi.

Farzandingizdagi og'riqni boshqarishda quyidagicha yordam bilan faol hamkor bo'lishga harakat qiling:

- Farzandingizning og'rig'ini baholashimiz va davolashimizga yordam berish
- Farzandingizni nimalar tinchlantirishini bizga bildirish

Og'riq

Og'riq bu yoqimsiz bo'lgan noqulaylik hissiyotidir. Har bir boladagi og'riq yoki noqulaylik darajasi, davomiyligi va turi bolaning o'zi va protseduraga bog'liq.

Og'riq ilk bir necha kunda odatda yomonroq va quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Yumshoq, o'rtacha yoki qattiq bo'lishi
- O'tkir, o'tmas, qizdiradigan, spazm, zirqiraydigan, uradigan, siqadigan, og'riq yoki gazli
- Farzandingizning faoliyat darajasi, uyqu va yeyish sharoitlariga qarab aniq bilinadigan yoki sezilmaydigan
- Qisqa, ba'zan yuz beradigan yoki uzoq davom etadigan

Jarrohlik natijasida kesilgan joydagi og'riq tinmasligi mumkin. Burab og'rish va spazmlar to'satdan paydo bo'lishi va keyin ketishi mumkin. Tomoq og'rish yoki bosh og'riq kabi boshqa umumiy og'riqlar dastlabki 24 soat ichida uchraydi.

Og'riqni o'lchash

Bolalarda og'riq bo'lishi va ular buni aniq bildirmasligi mumkin. Farzandingizdan o'zini qanday his qilayotganini so'raymiz. Agar farzandingiz juda yosh bo'lsa yoki javob bera olmasa, u o'zini qanday his qilayotganini sizdan so'rab bilishimiz mumkin. Ota-ona sifatida farzandingizning holati borasidagi sizning fikringiz juda muhim.

Og'riq shkalalari ham farzandingizdagi og'riq darajasi va turini o'lchashda yordam beradi. Parvarish jamoasi farzandingizning yoshi va rivojlanish darajasiga qarab og'riq shkalasini tanlaydi va ko'rib chiqadi.

Biz foydalanadigan ikkita og'riq shkalasi quyidagilar:

- Kuzatish (ularning xatti-harakatlarini tomosha qilish)
- Mustaqil xabar berish (ulardan og'riqni o'lchash uchun yuzlar rasmlari yoki raqamdan foydalanishni so'rash)

Protseduradan keyingi og'riq *Davomi*

Og'riqni nazorat qilish nega muhim?

Og'riq farzandingizning tuzalish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Og'riq farzandingizning quyidagi qobiliyatlariga ta'sir etishi mumkin:

- Yo'talish yoki chuqur nafas olish qobiliyati
- Uyqu va energiya darajalari
- Normal ovqatlanish
- Kayfiyat

Bu o'zgarishlar farzandingizda boshqa muammolar xatarini oshirishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, og'rig'i yaxshi nazorat qilinadigan bolalar tezroq tuzaladi va ularda muammolar va uzoq davom etadigan ta'sirlar kamroq bo'ladi.

Protsedura davomida

Farzandingizning parvarish jamoasi farzandingizning moslashtirilgan (farzandingiz uchun maxsus) anesteziya rejasini tuzadi va unga og'riqni qoldiruvchi dorilar kiradi. Farzandingizning rejasi protsedura va uning tibbiy hamda psixologik ahvoriga bog'liq bo'ladi. Parvarish jamoasi og'riqni qoldiruvchi dorilar va boshqa og'riqqa qarshi choralar qanday ishlashini tushuntiradi.

Farzandingiz quyidagilar kabi og'riq qoldiruvchi dorilar qabul qilishi mumkin:

- Vena orqali (IV) yoki og'iz orqali yuboriladigan opioid (narkotik) dori (masalan, fentanil (fentanyl) yoki morfin (morphine))
- Opioid bo'lmagan og'riq qoldiruvchi dorilar vena orqali yoki og'iz orqali
- Mahalliy yoki nervni bloklovchi (uyushtiradigan dorilar)

Og'riqni qoldiruvchi dorilar nojo'ya ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Parvarish jamoasi bunday nojo'ya ta'sirlarni imkon qadar kamaytirishga harakat qiladi. Gohida nojo'ya ta'sirlardan qochish imkonsiz bo'ladi.

Ko'p og'riqni qoldiruvchi dorilar farzandingizning nafas olish darajasi va chuqurligini kamaytirishi mumkin. Farzandingizning parvarish jamoasi nafas olishning buzilishi xatarini kamaytirish uchun bunday turdagi dorilarni qabul qilishni cheklashi mumkin. Nojo'ya ta'sirlarni to'xtatish va o'rganib qolishning oldini olish uchun bunday dorilar faqat shifokor nazorati ostida beriladi. Farzandingizning parvarish jamoasi bunday dorilarni xatarsiz berish malakasiga ega.

Protseduradan keyin

Protsedura davomida farzandingizga og'riqni qoldiradigan dorilar berilgan bo'lsa ham og'riq his qilishi mumkin. Ayrim bolalarga Anesteziyadan keyingi parvarish bo'limida (qayta tiklanish xonasi) qo'shimcha og'riqni qoldiruvchi dorilar berish talab etilishi mumkin. Og'riq pasaygani sari, farzandingiz shifoxona va uyda og'riqni qoldiruvchi dorilar va tinchlantirish uslublaridan foydalanishni davom ettirishi talab etilishi mumkin.

Bolalar bir xil bo'lmagani bois, og'riqni qoldiruvchi dorilar turi va qancha vaqt talab etilishi farqlanadi. Farzandingizning parvarish jamoasidan uning og'riqni boshqarish rejasi haqida so'rang.

Shifoxonada va uyda

Farzandingiz o'zini qulayroq his etishida yorda berishi mumkin bo'lgan ayrim narsalar:

- Dam oladigan pozitsiyani topish. Qulay sharoit yaratishda yordam berish uchun odeyalolar yoki yostiqlardan foydalaning.
Agar farzandingiz shifokori ruxsat bersa, farzandingizni ko'taring yoki chayqating.
- Mashg'ulotlar bilan chalg'itish. Farzandingizning miyasini musiqa yoki sokin mashg'ulotlar yordamida og'riqdan chalg'iting.
Taklif etilgan mashg'ulotlarga video tomoshasi yoki qo'l gadjetlaridan foydalanish kiradi.
- Suhbat bilan chalg'itish. Shifoxonaga aloqador bo'lmagan narsalar haqida so'zlashing (do'stlar, sevimli filmlar, o'yinchoq yoki o'yinlar, uy hayvonlari yoki maktab).
- Hazillardan foydalaning. Bu farzandingizning kayfiyatini ko'taradi va e'tiborini o'zgartiradi.
- Yengish usullari haqida so'zlang. "Agar bunday qilsang_____, o'zingni yaxshiroq his qilasan."
- Yengil torttiruvchi texnikalarni targ'ib qiling. Chuqur va ravon nafas olishga yoki meditatsiyaga urining.
- Salqin yoki iliq havo haroratidan foydalaning. Farzandingizning shifokoridan salqin yoki iliq havo haroratiga ruxsat borligini so'rang.

Farzandingizning shifokori uyda ham og'riq qoldiruvchi dori berishni tavsiya etishi mumkin. U:

- Sizga reseptsiz og'riq qoldiradigan/isitma tushiradigan dorilardan foydalanishni aytishi mumkin.
- Og'riqni qoldiradigan dorilarga resept yuborishi mumkin:
 - Bu resept uchun dorixona tanlashdan oldin dorixonaning ish vaqtini aniqlash uchun qo'ng'iroq qiling.
 - Farzandingizning reseptini darhol yozdiring.
 - Parvarish jamoasidan farzandingiz bu dorilarni qachon ichishni boshlashi kerakligini so'rang.
 - Farzandingiz ko'p uxlayotgan bo'lsa bunday dorilarni bermang.
 - Reseptli dorilarni berish uchun uni uyqusidan uyg'otmang.

Uyda dorilarni berayotganda idishdagi ko'rsatmalarga amal qiling.

- Ruxsat berilganidan ko'proq dorilar bermang.
- Kerakli miqdorda yoki kerakli shaklda berayotganingizga ishonchingiz komil bo'lmasa farzandingizning shifokoriga qo'ng'iroq qiling.

Og'riqni qoldiruvchi dorilar farzandingizning og'rig'i juda yomonlashgan vaqtdan ertaroq bersangiz yaxshiroq ta'sir etishi mumkin. Farzandingizning og'rig'i agar kutishga urinsangiz yoki og'riqni qoldiruvchi dori bermasangiz kuchayishi mumkin. Og'riq o'rtacha yoki qattiq bo'lib ketgandan keyin og'riqni qoldirish juda qiyin bo'lishi mumkin.

"Ota-ona uchun amaliyotdan keyingi og'riqni o'lchash" (PPPM, Parent's Postoperative Pain Measure) nomli tarqatma og'riq shkalasidan foydalaning, u sizga shifoxonadan chiqishdan oldin beriladi va farzandingizdagi og'riq darajasini o'lchashga yordam beradi. Natija sizga unga og'riq qoldiruvchi dorilarni qachon berishni ko'rsatadi.

Farzandingizning shifokori tuzalishga turtki bo'ladigan mashg'ulotlarni cheklashi yoki taklif etishi mumkin. Opioid kabi og'riqni qoldiruvchi dorilar berganda:

- Farzandingizga yurish yoki emaklashga yordam bering.
- Farzandingizga zinadan chiqish yoki tushishda yordam bering.
- Farzandingizga avtomobil yoki og'ir texnika boshqarishga ruxsat bermang.

Farzandingizda quyidagi holatlar yuz bersa shifokor bilan bog'laning:

- Dam olish, uxlash yoki tinchlanish imkoniyatidan to'sayotgan og'riq bo'lsa
- Haddan ortiq uyquchan va uni osonlik bilan uyg'otib bo'lmasa
- Gapi rayotganida alaxsirasa
- Qorin og'riqi, ko'ngil aynishi, qichishish yoki kichik yoki katta hojat chiqarishda qiynalish kabi nojo'ya ta'sirlarga ega bo'lsa

O'rganib qolishga oid xavotirlar

Bolalarning og'riqni qoldiruvchi dorilarga o'rganib qolishi juda kam kuzatiladi. Opioid dorilardan uzoq muddat foydalanish o'rganib qolishga olib kelishi mumkin. O'rganib qolish muammosiga ega bola yoki oila a'zosining borligi sababli bunday holatdan xavotiringiz bo'lsa, bu masalada shifokor bilan gaplashish tavsiya etiladi.

Cincinnati Children' s shifoxonasidagi dorixona

Reseptlar Burnet va Liberty kampuslaridagi ambulator dorixonalarimizda yozilishi mumkin. Dorixonaning ishlash vaqti joylashuvga qarab farqlanishi mumkin. Dorixona:

- Ko'pchilik sug'urta rejalarini qabul qiladi
- Naqdsiz tizimga ega (kredit va debet kartalarni qabul qiladi)
- Unda asetaminofen (acetaminophen) (Tylenol®) kabi reseptsiz beriladigan dorilar ham bor

Dorilarni xavfsiz saqlash va yo'q qilish

Saqlash

- Opioid dorilarni ishonchli joyga berkitib qo'ying.
- Dorilarni asl qadog'ida saqlang.
- Qancha dori borligini kuzatib boring (sanang).
- Doimo bolalardan himoyalangan qopqoqdan foydalaning.
- Har bir foydalanishdan keyin qopqoqni yoping.
- Dorilarni bolalar va hayvonlardan uzoqda saqlang.

Yo'q qilish

Foydalanilmagan opioid dorilarni **shu zahoti yo'q qiling**. Dorilarni **kelajakda** foydalanish uchun saqlamang. Bu ehtimoliy noto'g'ri foydalanish, boshqa maqsadda foydalanish yoki adashib ichib qo'yishning oldini oladi.

- www.fda.gov/drugs (faqat ingliz tilida) sahifasiga kiring. Dorilarni xavfsiz shaklda yo'q qilish sahifasini topish uchun "yo'q qilish" deb qidiring.
- Dorilarni yo'q qilishning eng xavfsiz yo'li bu dorilarni to'plash joyiga tashlashdir. Mahalliy dorixonaga qo'ng'iroq qiling va ularda dorilarni to'plash dasturi bor yoki yo'qligini surishtiring.
- Agar dorilarni to'plash dasturi bo'lmasa:
 - Opioidlarni yo'q qilish to'plamidan (mahalliy dorixonangizdan so'rang) foydalaning.
 - Foydalanilmagan opioid dorilarni hojatxonada yuvib yuboring.